

UDK: 373.091.3:811.512.133

ONA TILI TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

¹*Djakbarova Mahliyo Ibraximjonovna,*

²*To'lgina Zahro Baxtiyor qizi.*

¹NamDPI, Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar
kafedrasi o'qituvchisi, PhD.

mahliyoibraximjonovna@gmail.com

²NamDPI, Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar
Kafedrasi magistranti

zakhrobakhtiyorovna@gmail.com +998937078884

Annotatsiya. Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar ta'lim sohasida inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, ona tili ta'limi kabi muhim sohada ushbu texnologiyalar o'quv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarmoqda. Ona tili nafaqat muloqot vositasi, balki milliy madaniyat va o'zlikni anglashning asosiy tashuvchisi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli raqamli texnologiyalarni ushbu sohada qo'llash o'quvchilarga tilni chuqurroq o'rganish va undan samarali foydalanish imkonini beradi. Ushbu maqola ona tili ta'limida raqamli texnologiyalarning o'rnini, ularning afzalliklari, qo'llanilishi va mavjud muammolarni atroflicha tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, zamonaviy ta'lim, axborot manbalari, interaktivlik, multimediya resurslar, QR kodlar, ijodkorlik loyihalari, onlayn boshqotirmalar, so'z o'yinlari, electron darsliklar, innovatsion usullar.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

¹*Джакбарова Махлиё Ибрахимджоновна,*

²*Тулкинова Захро Бахтияровна.*

¹Наманганский государственный педагогический институт,
преподаватель кафедры инноваций в начальном образовании, PhD

mahliyoibraximjonovna@gmail.com

²Наманганский государственный педагогический институт, магистрант
кафедры инноваций в начальном образовании

zakhrobakhtiyorovna@gmail.com +998937078884

Аннотация. В современном мире цифровые технологии вызывают революционные изменения в сфере образования. Особенно в такой важной области, как обучение родному языку, эти технологии поднимают образовательный процесс на качественно новый уровень. Родной язык является не только средством коммуникации, но и ключевым носителем национальной культуры и самосознания. Поэтому применение цифровых технологий в этой области предоставляет учащимся возможность глубже изучать язык и эффективно его использовать. Данная подробно

анализирует роль цифровых технологий в обучении родному языку, их преимущества, способы применения и существующие проблемы.

Ключевые слова: цифровые технологии, современное образование, информационные ресурсы, интерактивность, мультимедийные ресурсы, QR-коды, творческие проекты, онлайн-головоломки, словесные игры, электронные учебники, инновационные методы.

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE

¹*Djakbarova Mahliyo Ibraximjonovna,*

²*To'lgina Zahro Baxtiyor qizi.*

¹*NamSPI, Lecturer at the Department of Innovations in Primary Education, PhD*

mahliyoibraximjonovna@gmail.com

²*NamSPI, Master's Student at the Department of Innovations in Primary Education*

zakhrobakhtiyorovna@gmail.com +998937078884

Abstract. *In the modern world, digital technologies are bringing about revolutionary changes in the field of education. Particularly in such a crucial area as native language instruction, these technologies are elevating the learning process to a qualitatively new level. The native language serves not only as a means of communication but also as a key carrier of national culture and self-identity. Therefore, the application of digital technologies in this field provides students with opportunities to study the language more deeply and use it effectively. This article comprehensively analyzes the role of digital technologies in native language education, their advantages, applications, and existing challenges.*

Keywords: *digital technologies, modern education, information resources, interactivity, multimedia resources, QR codes, creative projects, online puzzles, word games, electronic textbooks, innovative methods.*

KIRISH

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda va bu jarayon ta'lim tizimining mazmuni va tashkil etilishiga qo'yiladigan talablarni sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Endilikda o'qituvchining asosiy vazifasi nafaqat bilimlarni uzatish, balki o'quvchilarga mustaqil o'qish strategiyalarini o'rgatish hamda axborot manbalarini topish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan, zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan yangi **ta'lim modeliga** ehtiyoj ortib bormoqda. Bu

model axborotga kirishni soddalashtirish bilan birga, ta'lim jarayonini innovatsion usullar asosida qayta tashkil etish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari har bir pedagog uchun yuqori o'quv natijalariga erishishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari keng bo'lib, ularning samaradorligi o'qituvchining ijodiy yondashuvi, tasavvur kengligi va texnologik tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir. Shu bilan birga, bu texnologiyalar o'qituvchilardan o'zlarining raqamli kompetensiyalarini doimiy ravishda rivojlantirishni talab qiladi, bu esa o'quv jarayonining sifatini oshirish uchun zaruriy shartdir. Xususan, ona tili ta'limida an'anaviy metodlar bilan bir qatorda raqamli vositalardan foydalanishning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Quyida ona tilini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning asosiy sabablari va afzalliklari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ona tilini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish zamonaviy o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishini oshiradi, ularning kognitiv faolligi va mustaqillik darajasini rag'batlantiradi. Ushbu texnologiyalarning quyidagi **afzalliklari** alohida e'tiborga loyiq:



O'quvchilarning ona tili faniga bo'lgan qiziqishini va bilim olishdagi tashabbuskorligini oshiradi.



O'quv jarayonini optimallashtiradi, ona tili fani bo'yicha o'quv materiallarini chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, o'z-o'zini anglash qobiliyatlarini rivojlantiradi va tizimli bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi.



O'quvchilarning ona tili fani bo'yicha ijodiy salohiyati va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashadi, ularning faolligini oshiradi.



Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bilan birga, o'rganilayotgan materialni tahlil qilish va aks ettirish darajasini sezilarli darajada yuksaltiradi.

Raqamli texnologiyalar quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

Test topshiriqlarining avtomatlashtirilgan tahlili: QR-kodlar yordamida o'quvchilar savollarga javob berib, o'z bilim darajasiga mos baholashni avtomatik tarzda olishlari mumkin. Z. Raupova QR kodlardan ta'lim jarayonida foydalanishning rivojlangan va innovatsion vosita ekanligi haqida fikrlarini bayon qilib, QR kodlarini istalgan material yoki ommaviy axborot vositalariga osongina joylashtirishingiz mumkinligini, auditoriya uchun yuqori funktsional QR kodlarini yaratishda QR TIGER kabi professional QR kod ishlab chiqarish dasturidan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi [5; 139].

Multimedia resurslari. Masalan, "Savodxon" – "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi uchun multimediya ilovasi bo'lib, Respublika ta'lim markazi tomonidan 2022-yil 7-noyabrda "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi uchun qo'shimcha multimediya sifatida ishlab chiqilgan [6]. Ushbu ilova yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik darajasini oshirish mumkin. Ilova darslikni o'zlashtirishda yaxshi yordamchi bo'ladi.



Interaktivlik: sinfdagi barcha o'quvchilarni bir vaqtning o'zida faol ishtirok ettirish imkonini beradi, bu esa vaqtni tejash bilan birga darsda ishtirok eta olmagan o'quvchilarni ham qamrab oladi.

Guruhli hamkorlik loyihalari: o'quvchilar guruhlari tomonidan tarqatma materiallar, taqdimotlar, o'quv o'yinlari, boshqotirmalar va krossvordlar yaratilishi. Jumladan, 4-sinf "Ona tili" darsligining 4-qismida 4 ta "Ijodkorlik soati. Loyiha ishi" mavzusi berilgan bo'lib, ularda berilgan topshiriqlar bir-birini takrorlamaydi. 40-mashqda berilgan topshiriq sharti noan'anaviyligi bilan o'quvchilar qiziqishini orttiradi: "Iboralarning ma'nosini tushuntiring. Ko'zgu yordamida teskari gaplarni o'qing. Ulardan foydalanib ikkita gap tuzing." [2; 37]. 41-mashqda berilgan "Futbol o'ynaymiz" o'yini orqali "Fe'l" mavzusi bo'yicha o'quvchilarning egallangan bilimlari mustahkamlanadi. To'plardagi bo'g'inlarni birlashtirib, fe'llar hosil qiling. Kim ko'p fe'l hosil qilsa, darvozaga shuncha to'p kiritgan bo'lib, g'olib sanaladi.



O'qi+yap+ti

Su+pur+moq

Sar+ra+di

Xatolarni statistik tahlil qilish: o'qituvchining vaqtini tejashga yordam beradi;

Turli xillik: o'xshash mashqlarning katta hajmini tezda yaratish imkoniyati, bu o'qituvchi uchun vaqtini, o'quvchi uchun esa ta'lim sifatini oshiradi.


NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hozirgi vaqtda raqamli ta'lim resurslari keng assortimentda mavjud bo'lib, ularga fan bo'yicha maxsus dasturlar, testlar, videodarslar, tematik to'plamlar va ta'lim jarayonini boshqarish uchun dasturiy vositalar kiradi. Quyida sinflarda eng ko'p qo'llaniladigan texnologiyalar qisqacha ko'rib chiqiladi.

Ko'pincha o'rta va katta yoshdagi o'qituvchilar raqamli vositalarni o'zlashtirishni taqdimotlar tayyorlashdan boshlaydi. Bu "oddiydan murakkabga" tamoyiliga asoslanib, pedagogikaning an'anaviy qoidalaridan biridir. Taqdimotlar yangi materiallarni tushuntirish, bilimlarni mustahkamlash va ijodiy topshiriqlarni

bajarishda samarali qo'llaniladi. PowerPoint kabi dasturlarga ehtiyoj kamayib, Internet xizmatlari taqdimot yaratish jarayonini soddalashtirib, o'qituvchilarning vaqtini tejamoqda (ChatGPT, DeepSeek, Gigachat, Grok va hokazo).

Onlayn boshqotirmalar yaratish ham muhim vosita sifatida qo'llaniladi. Masalan, T. Jo'rayeva tomonidan yaratilgan "Ilmiy izohlar va ma'nolar lug'ati" elektron lug'ati xizmatidan foydalanib, matn bilan ishlashda izohtalab so'zlarning ma'nosini topish uchun vaqt beriladi [3; 109]. Bu usul orqali mavzuni yanada tushunarli bo'lishiga erishiladi va so'zlarni uzoq muddat esda saqlab qolishga yordam beradi.



Ona tili darslarida so'z o'yinlari bilimlarni yangilashda keng qo'llaniladi. O'quvchilar bunday topshiriqlarni yaxshi ko'radi va ularni o'zlari yaratishga harakat qiladi, bu esa ijodkorlik va fanlarga qiziqishni oshiradi. Veb-xizmatlardagi interaktiv vazifalar individual yondashuv va masofaviy ta'lim imkoniyatini ta'minlaydi. O'qituvchilar uchun eng muhim jihat shuki, yosh avlodning izlanuvchan ongini bilim olamiga yo'naltirish uchun doimiy ravishda o'rganish, yangilanish va yangi ko'nikmalarni egallash zarur. To'g'ri tanlangan raqamli texnologiyalar ta'limning sifatini, moslashuvchanligini va individualligini ta'minlaydi hamda o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar ona tili ta'limida an'anaviy usullarni zamonaviy yondashuvlar bilan boyitadi. Masalan, interaktiv darsliklar, virtual sinf xonalari va mobil ilovalar yordamida o'quvchilar grammatika qoidalarini o'rganishdan tortib,

adabiy matnlarni tahlil qilishgacha bo'lgan keng ko'lamli mashg'ulotlarni bajarishlari mumkin. Bu vositalar o'quv jarayonini yanada jonli va o'quvchilar uchun qulay qilib, ularning motivatsiyasini oshiradi.

N. A. Muhiddinova an'anaviy darslikdagi matnning xususiyatlari bilan zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida tuzilgan interaktiv elektron asardagi matnning xususiyatlarini 9 bandda taqqoslab, ularning o'rtasidagi farq, afzalliklar to'g'risida mulohazalar yuritadi [4; 31-33-betlar]. Darhaqiqat, hozirgi kunda interaktiv elektron darsliklar yaratish borasida izlanishlar olib borish va yuqori texnologiyalardan to'liq foydalanish nafaqat informatika fanining, balki filologiya va metodika fanlarining ham asosiy vazifasi bo'lishi zarur. Qadimda yozuv paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan imkoniyatlar to'g'risida qanday tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda yuqori texnologiyalar taqdim etayotgan imkoniyatlarni o'rganish ham shunchalik muhimdir. Ushbu sohaning jadal rivojlanishi izlanishlarning ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli, biz bu sohaning faqat nazariy jihatlariga e'tibor qaratib qolish bilan kifoyalanmasdan, amaliy darsliklar yaratish ustida ham ish olib borishimiz lozim. Ilgari ta'lim muassasalarida turli xildagi darsliklarga – alifbo, o'qish kitobi, lug'at va boshqalarga qanchalik e'tibor berilgan bo'lsa, bugungi kunda yangi axborot texnologiyalariga ko'proq diqqat qaratishimiz dolzarb masalaga aylanib qolmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta'limda qo'llanilganda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada yaxshilanadi. O'zbek tilini Internet tarmog'ida ommalashtirish, unda munosib o'rin egallashini ta'minlash, dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalarini yaratish, o'zbek tilini o'rgatuvchi kompyuter dasturlarini keng miqyosda amaliyotga tatbiq qilish maqsadida 7 bandda amalga oshiriladigan ishlar rejalashtirilgan bo'lib, unga ko'ra til o'qitish bo'yicha dasturiy mahsulotlar yaratish; "Maktabgacha ta'limda ona tili", "Boshlang'ich ta'limda ona tili", "Ommabop ona tili", "Umumiy o'rta ta'limda ona tili" kabi elektron o'quv dasturlarini yaratish; bolalar va o'smirlar uchun kompyuter o'yinlari asosida o'zbek tilining elektron o'quv dasturlarini ishlab chiqish, turli xil kompyuter o'yinlari va "Qiziqarli grammatika" orqali o'zbek tilining elektron o'quv dasturlarini yaratish, davlat tilini o'rgatish bo'yicha audio, video darslar hamda mobil ilovalar tayyorlash

kabi vazifalar belgilangan [1]. Ammo o'zbek tilini o'rganishga mo'ljallangan maxsus ilovalar kam yaratilgan bo'lib, bunday raqamli ilovalar o'quvchilarga imlo, so'z boyligi va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda katta yordam beradi.

O'zbekistonda ona tili ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, "E-Maktab" tizimi maktab o'quvchilariga elektron darsliklar va mashqlar taqdim etadi. Shu bilan birga, "O'zbek tilini o'rganamiz", "Savodxon.uz", "Imlo.uz" kabi mobil ilovalar yosh avlod orasida mashhur bo'lib, ularda interaktiv o'yinlar orqali til o'rganish imkoni yaratilgan. Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Janubiy Koreyada til ta'limida virtual reallik (VR) texnologiyalari qo'llanilmoqda, bu esa o'quvchilarga immersiv muhitda tilni o'rganish imkonini beradi. O'zbekistonda ham bunday ilg'or texnologiyalarni joriy etish kelajakda ta'lim sifatini oshirishi mumkin.

XULOSA

Ona tili ta'limida raqamli texnologiyalar zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylandi. Ular o'quv jarayonini interaktiv, moslashuvchan va resurslar bilan boyitilgan qilib, o'qituvchi va o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, infratuzilma muammolari, o'qituvchilarning raqamli savodxonligi va sog'liq masalalarini hal qilish uchun qo'shimcha choralar ko'rish lozim. Kelajakda ushbu texnologiyalarni to'g'ri yo'naltirish va rivojlantirish orqali ona tili ta'limini yanada yuqori darajaga ko'tarish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://lex.uz/mact/-5058351> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2020. 20-oktabr. PF-6084.
2. Boynazarova D. D., Toirova M. E. Ona tili. 4-sinf. IV qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. Toshkent – 2023.
3. Jo'rayeva T. U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari. // France international scientific-online conference: "scientific approach to the modern education system". March 13. 2023 www.interonconf.org.B. 106-111.
4. Muhitdinova N. A. Interaktiv elektron darsliklarda qoidalarni ifodalash tamoyillari. Zamonaviy ta'lim. 2014, 8. 29-33-betlar.
5. Raupova Z. G'. Ta'lim jarayonida QR kodlardan foydalanish. Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences Hosted online from Toronto, Canada. 2024. 5-aprel. 137-141.